

## TA’LIM JARAYONIGA SUN’IY INTELLEKTNING TA’SIRI

O’ljaboyev Azim  
Toshkent amaliyfanlar universiteti  
“Pedagogika va psixologiya” fakulteti  
4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19452745>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy ta’lim jarayoniga ko’rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellektning ta’limdagi ijobiy va salbiy jihatlari atroficha ko’rib chiqilib, ushbu texnologiyaning tizimni tubdan o’zgartirishdagi o’rni va dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellektning global miqyosda o’qish samaradorligini oshirish va baholash tizimlarini takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so’zlar:** ta’lim, sun’iy intellekt, mantiqiy fikrlash, baholash, o’qish samaradorligi, ta’lim texnologiyalari.

**Аннотация:** В данной статье анализируется влияние технологий искусственного интеллекта на современный образовательный процесс. В работе рассматриваются как положительные, так и отрицательные стороны внедрения ИИ, подчеркивается его роль в трансформации образовательной среды. Особое внимание уделяется актуальности ИИ в повышении эффективности обучения и совершенствовании систем оценивания на глобальном уровне.

**Ключевые слова:** образование, искусственный интеллект, мышление, оценивание, эффективность обучения, образовательные технологии.

**Abstract:** This article analyzes the impact of artificial intelligence technologies on the modern educational process. The research explores both the positive and negative aspects of AI in education, highlighting its role as a transformative and relevant force in the system. Furthermore, the significance of AI in enhancing learning efficiency and improving assessment systems on a global scale is discussed.

**Keywords:** education, artificial intelligence, thinking, assessment, learning efficiency, educational technologies.

**Kirish.** Bugungi raqamli texnologiya davrida sun’iy intellekt texnologiyalari hayotimizning barcha sohalariga, shu jumladan ta’lim sohasiga ham jadal kirib kelmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2030 yillarda “Raqamli O’zbekiston” strategiyasi doirasida ta’lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo’nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu yo’nalishda sun’iy intellekt texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. O’zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni endigina shakllanayotgan bo’lsa-da, bu borada muhim qadamlar tashlana boshlandi. Xususan, respublikamizda raqamli ta’lim platformalari yaratilmoqda, masofaviy ta’lim tizimi rivojlantirilmoqda va o’quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilmoqda.

Sun’iy intellekt haqidagi farazlar yaqinda bahs munozaraga sabab bo’layotgan mavzu emas. Sun’iy intellekt haqidagi bahs munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha bir to’xtamga kelishgani yo’q. Ba’zilar ularning ommalashib odamlar o’rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko’rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislar boshqa bir guruhi esa sun’iy intellektga ijobiy munosabatda bo’lish kerakligini uqtirishmoqda. Sun’iy intellekt faqatgina ta’lim sohasiga yoki fikrlashga ta’sir ko’rsatibgina qolmay mehnat bozoriga ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda.

R.Benerdji-odatda sun’iy intellekt deb nomlangan tadqiqot sohasini yaqin kunlarga faqat inson hal qiladigan masalalarni yecha oladigan mashinalarni analiz va konstruktsiya qilishning usul va vositalari yig’indisi sifatida qarash mumkin. Bunda tezlik va samaradorligi bo’yicha mashinalar inson bilan tenglasha olishi kerak.[1.12]

Xaydegerning fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta’limotga asosan tasavvur fikrda ifoda etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi ta’limotni logika, mantiq deb ataydi.[2.107]

Hozirgi kunda sun’iy intellektning ta’limdagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Talabalar sun’iy intellektdan qo’shimcha yordam olishlari mumkin. Ushbu dasturlar talabalarga asoslarni o’rgatadi, ammo hozirgacha mantiqiy fikrlash va ijodiy fikrlashni o’rganishga xizmat qilish uchun ideal emas, bu haqiqiy dunyo o’qituvchilari hali ham osonlashtirish uchun zarur bo’lgan narsadir. Shunga qaramay, bu sun’iy intellekt kurslari kelajakda ushbu narsalarni sinab ko’rish imkoniyatiga ega bo’lish ehtimolini istisno qilmasligi kerak; 2. Tezkor ma’lumot olish. O’zimizga qiziq bo’lgan har qanday savolga bir zumdayoq javob olish imkoniyati. Darhaqiqat, bir zumda, har qanday o’quvchi yoki talabani ehtiyojini qondiradi, shunday ekan sun’iy intellektdan foydalanuvchilarning soni borgan sari oshib bormoqda. Sun’iy intellektdan tezkor ma’lumot olish - bu katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish va foydalanuvchiga aynan kerakli javobni real vaqt rejimida yetkazish jarayonidir. Bu jarayon orqali sun’iy intellekt murakkab savollarni bir necha soniya ichida qayta ishlaydi, turli manbalardagi ma’lumotlarni solishtiradi va eng mos, aniq va tushunarli natijani taqdim etadi. Natijada inson vaqtini tejaydi, izlash jarayoni yengillashadi va qaror qabul qilish tezlashadi; 3. Tezkor qaror: Odamlardan farqli o’laroq, sun’iy intellekt odamlarga qaraganda, tezroq qaror qabul qilishga va harakatlarni tezroq bajarishga yordam beradi. Qaror qabul qilishda odamlar ko’plab omillarni tahlil qiladilar, sun’iy intellekt esa dasturlashtirilgan narsa ustida ishlaydi va natijalarni tezroq ko’rish imkoniyatini beradi. Shunday qilib sunniy intellekt hozirgi o’quv faoliyatda va boshqa yo’nalishdagi faoliyatlarda yordamchi sifatida ko’rish mumkin. Shu bilan birga sun’iy intellektning ta’limda kamchiliklari ham mavjud: 1. Kasbiy faoliyatlar kamayishi va ishsizlar sonining oshib ketishi: Dasturiy ta’minot sanoati jadal rivojlanayotgan bo’lsa-da, sun’iy intellekt tez orada ko’plab maktab xodimlarini almashtirishi mumkin. Ma’muriyatni boshqarishdan tortib o’qitishgacha, u hamma narsa uchun yechimga ega. Onlayn ta’lim bilan sinf o’lchamlari chegarasi yo’q va u ta’lim sohasida katta ishsizlikka olib kelishi mumkin. O’qitishni samaraliroq qilish o’qituvchilarga kamroq talab tug’dirishi mumkin. Ochiq onlayn o’qitish tizimi sinf hajmi endi sifatli ta’limning hal qiluvchi omili emas va sun’iy intellektni amalga oshirish o’quv qo’llanmalari va yordamchilarning kamayishini anglatishi mumkin;

2. Shaxslararo munosabatlarga putur yetishi. Hech kimga sir emas texnologiyalar yoki sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan sari shaxslararo muloqot kamayib bormoqda. Bu esa o’quvchilarda o’z qobig’idan chiqmaslikka sabab bo’lmoqda. Shaxslararo muloqot pasayib ketgandan keyin tabiiyki insonlarda qo’rquv, xavotir, o’ziga bo’lgan ishonchning pasayib ketishi kabi holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. Bu esa ta’limga o’z ta’sirini o’tkazmasdan qolmaydi va o’quvchining ta’lim samaradorligini tushib ketishiga asosiy omillardan biri hisoblanadi; 3. Ma’lumotlarning xatoligi. Sun’iy intellekt har doim ham to’g’ri ma’lumot bermaydi. Sun’iy intellekt foydali maslahatlar berishi mumkin lekin ularning hammasi to’g’ri emas. Sun’iy intellekt so’zlarni moslashtirib ma’lumot beradi lekin bu har doim haqiqatni anglatmaydi. Shuning uchun foydalanuvchilar ma’lumotni mustaqil tekshirishlari kerak. Barcha savol yoki vaziyatlarda sun’iy intellektga qaram bo’lishdan o’zimizni chegaralashimiz kerak.

Yuqorida sun’iy intellektning afzalliklari va kamchiliklari haqida so’z borar ekan albatta texnologiyani rivojlanishi yaxshi faqat undan foydalanishda me’yor va chegara zarur. Yana eng

muhim jihati shundaki hamma nasada sun’iy intellektga tayanib qolish hozirgi keng katta va muhim muammolardan biri. Chunki sun’iy intellekt nafaqat ta’lim sohasida balki barcha jabhada o’z ta’sirini ko’rsatyabti. Misol qilib oladigan bo’lsak tibbiyot hodimlari o’zlari bilmagan dori vositalarini sun’iy intellektdan so’rash orqali insonlarga tavsiya qilishmoqda. Lekin bu ilova har doim ham to’g’ri ma’lumot bermasligi hammamizga ayon. Yana bir achinarli holatlardan biri ta’lim tizimida yuz bermoqda. Ya’ni sun’iy intellekt o’quvchilarning bilish jarayonlariga katta ta’sir qilmoqda. Birgina diqqat yoki xotiraga emas tafakkurga ham o’z ta’sirini o’tkazmoqda. Oddiy savol yoki shunchaki fikrlab javob beradigan jarayonda o’quvchi sun’iy intellektga murojat qilmoqda. Misol qiladigan bo’lsak: o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini pasayishi sun’iy intellekt yordamida tayyor bilimlardan foydalanish qulay, biroq bu o’quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini susaytirish mumkin. O’quvchilar tayyor javoblarga o’rganib qolib ijodiy tafakkur qilishdan uzoqlashishi mumkin. Sun’iy intellektning tanqidiy fikrlashga ta’siri haqida ko’plab tadqiqotlar o’tkazilgan. Ulardan biri 666 kishi ishtirok etgan tadqiqot natijasiga ko’ra sun’iy intellekt vositalaridan faol foydalanayotganlar, ayniqsa, yoshlar orasida tanqidiy fikrlash pasayishi kuzatilmogda bu juda xavfli holat. Shveysariya biznes maktabi tadqiqotchisi Maykl Gerlix ishtirokchilarni baholash uchun Halpern Critical Thinking Assessment (HCTA) testidan foydalandi. Ko’p javobli savollar va ochiq topshiriqlarni o’z ichiga olgan ushbu test dalillarni tahlil qilish va ehtimolliklarni tushunish kabi tanqidiy fikrlashning turli jihatlarini baholaydi. Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, tanqidiy fikrlash testlaridan past natijalar olganlar asosan sun’iy intellektdan ko’p foydalanuvchilar bo’lib chiqmoqda. A. V.

Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning mushim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari aloshida ta’kidlab o’tiladi. Yuqoridagi mualliflardan o’laroq, A. V. Brushlinskiy tafakkurning umumlashtirib, bilvosita aks ettirishdan tashqari mushim yangilikni izlash va ochish, oldindan bashorat qilish xususiyatlari mavjudligini dalillab ko’rsatadi. [3.90]

Texnologiyalar insoniyatga foyda keltirish yoki jamiyatni rivojlantirish uchungina kerak insonlarni unga qaram bo’lishi uchun emas. Buning uchun qanday islohotlarni amalga oshirish kerak? degan savol paydo bo’lishi tabiiy. Avvalambor sun’iy intellekt vositalaridan qanday foydalanishni o’rgatish kerak. Deylik, har bir vazirlik, idoralarning matbuot xizmati. Kuzatilib turadigan holat esa matbuot xizmatlari qaysidir xabarni chiqarib, xalq tilida aytganda «qovun tushiradi». Agar sun’iy intellekt vositasidan foydalansa, buning oldini olish mumkin. Masalan, ChatGPT o’sha xabarni baholab bera oladi, qanday reaksiya bo’ladi, qanday qaraladi, ijobiy-salbiy baholash kabilarni tahlil qiladi. Bu degani faqatgina sun’iy intellekt orqali tahlil qilish emas o’sha tahlil qilingan xabar bizning jamiyatimizga qanchalik munosib yoki yo’q uni o’zimiz tahlil qilishimiz kerak.

**Xulosa.** Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini tubdan o’zgartirib, uni yanada interaktiv, qulay va samarali qilmoqda. Shaxsiylashtirilgan ta’lim, aqlli repetitorlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali ushbu texnologiya o’qitish uslublarini yangi bosqichga olib chiqdi. Biroq, bu jarayonda texnologiyani to’g’ri boshqarish va uning ehtimoliy salbiy ta’sirlarini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda sun’iy intellekt ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi aniq, ammo uni inson omili bilan uyg’unlashtirish zarur. O’qituvchilarning boy tajribasi va pedagogik mahorati sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan birlashgandagina ta’lim jarayoni kutilgan natijani beradi. Shu bois, ushbu texnologiyalarga faqat yordamchi vosita sifatida qarab, ta’limning insoniy mohiyatini saqlab qolish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. T.A.Xo’jaqulov, N.T.Malikova-“Sun’iy intellect” o’quv qo’llanma-T-2020. 218b.

2. R.N.Melibayeva, Y.K.Narmetova-Psixologiya va Pedagogika o‘quv uslubiy qo‘llanma T-2022. 300b.
3. E.G‘oziyev-“Umumiy psixologiya” o‘quv qo‘llanma II kitob –T-2002. 154b.